Xalqaro tajribalardan koʻrish mumkinki banklar faoliyatida qoʻllaniladigan turli kreditlash amaliyoti modellari mijozlarning kreditlash amaliyotini aniq va keng koʻlamda baholash va ularga qulay imkoniyat beradigan zamonaviy usullardan biridir. Buning yordamida mijozlar oʻz faoliyatini rivojlantirish hamda kredit risklarini sezilarli darajada pasaytirish imkoni yaratiladi. Demak, kreditning qaytmasligi bilan bogʻliq yoʻqotishlarni oldi olinadi. Kredit shartlari bajarilishi va ularning kreditga layoqatlilikni aniq, toʻliq va tezkor baholash nafaqat tijorat banklari uchun kredit riskini pasaytirish balki, mijozlar uchun kreditni qaytara olmaslik riskini qisqartirishga tayinlanganligi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Taʼkidlash kerakki, banklar amaliyotida “transformatsiyalash modeli” ball tizimidan foydalanish, ham bank uchun, ham mijozlar uchun kutilgan samarani beradi. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida mijozlar manfaati va bank daromatini aniqlashda kreditlash amaliyotida turli modellari va ball tizimlari muhim vosita boʻlib xizmat qilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mijozlarning kreditga layoqatlilikni tahlil etish va baholash borasida iqtisodchi olimlar va soha mutaxassislarining turli xil yondashuvlari mavjud boʻlib, ularni umumlashtirgan holda ikki guruhga tasniflash mumkin. Bir guruh olimlar va mutaxassislar mijozlarni kreditga layoqatliligini tijorat banklari manfaati va kredit siyosatlaridan kelib chiqib talqin qilishsa, boshqa bir guruh olimlar moliyaviy holat, samaradorlik va biznes koʻlamidan kelib chiqib kreditga layoqatlilikni tahlil qilishni tavsiya etishadi. Har ikkala yondashuvning umumiy gʻoyasi shundaki, kreditga layoqatlilikka baho berishda mijozlarning moliyaviy holati muhim obyekt sanaladi. Biroq, tijorat banki nuqtayi nazardan tahlil qilinganda moliyaviy holat tahlili bilan birga kredit oluvchi mijozlarning nomoliyaviy koʻrsatkichlariga ham alohida eʼtibor qaratiladi.

Iqtisodchi olim Mavlanov (2018) bank mijozlar kreditga layoqatliligini har ikkala jihatdan tadqiq etib, bank nuqtayi nazardan moliyaviy va nomoliyaviy koʻrsatkichlarni maʼlum mezonlar asosida tasniflab, skoring modeli yordamida kreditga layoqatlilikka baho berishni taklif etgan. Mijozlarning moliyaviy holatidan kelib chiqib kreditga layoqatlilik tahlilini takomillashtirishda likvidlilik, balans likvidligi, barqarorlik va samaradorlik koʻrsatkichlari asosida kompleks tahlil yondashuvini taklif etgan va undan foydalanish samaradorligini koʻrsatib oʻtgan (Mavlanov, 2019).

Turdiyeva (2019) kreditga qobillikning nazariy va tashkiliy-uslubiy jihatlariga bagʻishlangan ilmiy ishida agrar sektori korxonalari misolida kreditga layoqatlilik tahlilida qoʻllaniladigan atamalar talqini, kreditga qobillik tahlilining kompleks iqtisodiy tahlilda tutgan oʻrni, tahlil jarayonida nomoliyaviy koʻrsatkichlardan foydalangan holda mijozlarni sinflarga ajratish kabi masalalarni ochib bergan.

Kreditga layoqatlilikni toʻlovga qobillikdan farqi uning murakkab jarayon va kelgusi davrdagi holatni baholashga qaratilganligidan kelib chiqib tijorat banklarida mijozlarning kreditga layoqatliligini baholash amaliyotini takomillashtirish masalalari ham ilmiy tadqiq etilgan (Mamatov, Qulliyev, Pulatova, 2016).

Alimardonov (2017) kichik biznes subyektlarini kreditlashda ularning kredit toʻloviga layoqatliligini baholash va bunda umumiy pul oqimlarini baholash usuli eʼtibor qaratib, ushbu usulni moliyaviy koeffitsiyentlar usulidan afzal degan xulosaga kelgan.

1 Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 2018-yil 23-martdagi qarori.

Bir guruh olimlar tomonidan chop ettirilgan “Bank ishi” darsligida kreditga layoqatlilik tushunchasi mohiyati, uning kreditlash jarayonidagi ahamiyati, jismoniy va yuridik shaxslarning kreditga layoqatliligini baholash usullari va tartiblari keltirib o‘tilgan (Azizov va boshqalar, 2016).

Rossiyalik olimlar o‘z tadqiqotlarida iqtisodiyot subyekti kreditga layoqatliligini baholashda faoliyat uzluksizligi konsepsiyasini ilgari surgan holda mijozlarning kreditga layoqatliligini ta’minlamasligi uning faoliyati yakunlanishi ya’ni bankrotlik holatiga tushushiga olib kelishi va faoliyat uzluksizligiga jiddiy xatar bo‘lishini isbotlashgan (Babicheva, Lyubishin, Kondratev, 2018).

Yuqorida keltirilganlardan ko‘rinib turibdiki, mijozlarni kreditga layoqatliligini tahlil qilish va baholash muhim iqtisodiy munosabatlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonning ko‘plab jihatlari olimlar tomonidan ochib berilgan bo‘lsada, kreditga layoqatlilik tahlilining nazariy hamda tashkiliy-uslubiy jihatlari va mijozga qulaylik yaratish yoki kreditni muddatidan oldin qaytarish bo‘yicha amaliy ishlar yetarli darajada tadqiq etilmagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotimiz mijozlarning kreditlash amaliyoti davrini tahlili va uni baholash mezonlarini takomillashtirish maqsadida olib borilgan bo‘lib, aniq vazifalar belgilab olindi. Tadqiqot jarayonida amaliy materiallarni taqqoslash, statistika va jadvallar yordamida tahlil ishlari olib borilgan, undagi natijalar asosida aniq xulosa va amaliy takliflar bayon qilingan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyoti vujudga kelgandan to hozirgi davrga qadar kredit munosabatlari uzluksiz takomillashib hamda rivojlanib kelmoqda va bu jarayon kelgusida yanada keng ko‘lamda davom etish tavsifiga ega. Chunki, kredit munosabatlari iqtisodiyotda ko‘plab biznes subyektlar faoliyatini boshlashiga, to‘xtovsiz amalga oshirishiga hamda kengayishiga muhim moliyaviy omil bo‘lmoqda.

Bank kreditlari va ssudalarini jalb qilish qaysi mezonlar va tartiblar asosida amalga oshiriladi? Bu borada, mijozlar va tijorat banklari o‘rtasida bo‘ladigan qarz munosabatlarini yo‘lga qo‘yishda avalam bor ularning kreditga layoqatliligi tahlili va kreditlash amaliyoti davrida ularni baholash modellari takomillashtirish bosh masaladir. Har bitta tijorat banki o‘z mijozlar bilan kredit munosabatlari yuzasidan mustaqil siyosatini olib boradi. Lekin ularning barchasida bitta muhim jihatga, ya’ni mijozlarning kreditni qaytarish imkoniyatini va ularni bankga keltirayotgan daromadlarini hamda ularning faoliyatini aniq baholashga ahamiyat qaratilmog‘i lozim.

Bugungi kunda mamlakatimiz tijorat banklarida mijozlarning kreditlash amaliyoti tahlilini baholash bo‘yicha turli xil usullardan foydalanib kelinmoqda. Ta’kidlash kerakki, banklar amaliyotida mijozlarning kreditga layoqatliligini tahlil qilish va baholashda uch turdagi: qoplash, likvidlilik va muxtorlik koeffitsiyentlaridan foydalanilmoqda. Ushbu koeffitsiyentlar asosida mijozlarning kreditga layoqatliligi uchta sinfga ajratish asosida baholanmoqda.

1-jadval: Tijorat banklari tomonidan qo‘llanilayotgan kreditga layoqatlilikni baholash mezonlari[2]

| Ko‘rsatkichlar | I sinf | II sinf | III sinf |
|---|---|---|---|
| 1. Qoplash koeffitsiyenti (Qk) | Qk > 2 | 2 > Qk > 1 | 1 > Qk |
| 2. Likvidlilik koeffitsiyenti (Lk) | Kk > 1,5 | 1,5 > Lk > 1 | 1 > Lk |
| 3. Muxtorlik koeffitsiyenti (Mk) | Mk > 60% | 60% > Mk > 30% | 30% > Mk |

Ushbu tartibdagi kreditga layoqatlilikni baholash mezonlarida quyidagi bartaraf etiladigan kamchiliklar hamda takomillashtirilishi talab etiladigan umumiy jihatlar mavjud deb hisoblaymiz. Jumladan:

- koeffitsiyentlarni hisoblash usulidagi kamchiliklar;
- ushbu koeffitsiyentlar asosida xo‘jalik yurituvchi subyektlarining moliyaviy ahvolini to‘liq baholash imkoni yo‘qligi;
- xalqaro tajribalar e’tiborga olinmaganligi.

2 Muallif tomonidan shakllantirildi.



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

2-jadval: Mijozlarning kreditlash jarayonini moliyaviy ko'rsatkichlari orqali baholash[1]

| Ko'rsatkichlar nomi | Ball taqsimoti | Kreditlash amaliyoti bo'yicha sinflarga ajratish | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Me'yori | ball | Me'yori | ball | Me'yori | ball | Me'yori | ball | Me'yori | ball |
| | | 1-sinf | | 2-sinf | | 3-sinf | | 4-sinf | | 5-sinf | |
| 1. Mijozlarning likvidlilik ko'rsatkichlari: | 15 | | 15 | | 12 | | 9 | | 6 | | 0 |
| Joriy likvidlilik koeffitsiyenti | 5 | 2< | 5 | 2>Jlk>1,5 | 4 | 1,5>Jlk>1 | 3 | 1>Jlk>0,5 | 2 | Jlk<0,5 | 0 |
| Tez likvidlilik koeffitsiyenti | 5 | 1,25< | 5 | 1,25>Tlk>1 | 4 | 1>Tlk>0,75 | 3 | 0,75>Tlk>0,5 | 2 | Tlk<0,5 | 0 |
| Mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti | 5 | 0,75< | 5 | 0,75>Mlk>0,5 | 4 | 0,5>Mlk>0,25 | 3 | 0,25>Mlk>0,1 | 2 | Mlk<0,1 | 0 |
| 2. Balans likvidligi tahlili | 15 | A1>P1 A2>P2 A3>P3 A4>P4 A5 | 15 | A1>P1 A2>P2 A3>P3 A4>P4 A5< P5 bitta shart bajarilmasa | 12 | A1>P1 A2>P2 A3>P3 A4>P4 A5< P5 ikkita shart bajarilmasa | 10 | A1>P1 A2>P2 A3>P3 A4>P4 A5< P5 uchta shart bajarilmasa | 5 | A1>P1 A2>P2 A3>P3 A4>P4 A5< P5 umuman shart bajarilmasa | 0 |
| 3. Mijozlar mablag'larining aylanishi tahlili: | 20 | | 20 | | 16 | | 12 | | 8 | | 0 |
| Mijozlar joriy aktivlari aylanish ko'rsatkichlari | 5 | Jak>12 | 5 | 12>Jak>6 | 4 | 6>Jak>4 | 3 | 4>Jak>3 | 2 | 3>Jak>0 | 0 |
| Mijozlarning debitorlik qarzlari ko'rsatkichlari | 5 | Dak>12 | 5 | 12>Dak>6 | 4 | 6>Dak>4 | 3 | 4>Dak>3 | 2 | 3>Dak>0 | 0 |
| Mijozlarning kreditorlik qarzlari ko'rsatkichlari | 5 | Kak>12 | 5 | 12>Kak>6 | 4 | 6>Kak>4 | 3 | 4>Kak>3 | 2 | 3>Kak>0 | 0 |
| Tovar moddiy zaxiralari aylanuvchanligi | 5 | TMZak>12 | 5 | 12>TMZak>6 | 4 | 6>TMZak>4 | 3 | 4>TMZak>3 | 2 | 3>TMZak>0 | 0 |
| 4. Mijozlar faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili: | 15 | | 15 | | 12 | | 9 | | 6 | | 0 |
| Joriy aktivlar rentabellik ko'rsatkichi | 5 | Jar>40% | 5 | 40%>Jar>30% | 4 | 30%>Jar>20% | 3 | 20%>Jar>ID | 2 | Jar<ID (inflasiya darajasi) | 0 |
| Xususiy kapital rentabellik ko'rsatkichlari | 5 | Xkr>40% | 5 | 40%>Xkr>30% 4 | 4 | 30%>Xkr>20% | 3 | 20%>Xkr>ID | 2 | Xkr<ID (inflasiya darajasi) | 0 |
| Sotish rentabellik ko'rsatkichi | 5 | Sr>40% | 5 | 40%>Sr>30% | 4 | 30%>Sr>20% | 3 | 20%>Sr>10% | 2 | Sr<ID (inflasiya darajasi) | 0 |
| 5. Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tahlili: | 15 | | 15 | | 12 | | 9 | | 6 | | 0 |
| Mustaqillik koeffitsiyenti | 5 | Mk>0,6 | 5 | 0,6>Mk>0,5 | 4 | 0,5>Mk>0,4 | 3 | 0,4>Mk>0,3 | 2 | Mk<0,3 | 0 |
| Qarz va o'z mablag'lari o'rtasidagi nisbat koeffitsiyenti | 5 | 0,2>QO'zk >0 | 5 | 0,4>QO'zk>0, 2 | 4 | 0,5>QO'zk>0, 4 | 3 | 1>QO'zk>0,5 | 2 | QO'zk>1 | 0 |
| Xususiy kapital harakatchanlik koeffitsiyenti | 5 | Xxk>0,5 | 5 | 0,5>Xxk>0,4 | 4 | 0,4>Xxk>0,3 | 3 | 0,3>Xxk>0,2 | 2 | Xxk<0,2 | 0 |
| 6. Mijozlar hisob raqamidagi resurs qoldig'ining kreditga nisbatan baholash | 20 | Кредит< 1 | 20 | 2, 1>Kredit>0,8 | 15 | 0,8>Kredit>0,6 | 10 | 0,6>Alm>0,4 | 5 | Alm>0,4 | 0 |
| Umumiy ball | 100 | | 100 | | 79 | | 59 | | 36 | | 0 |

1 Muallif tomonidan tuzilgan.

3-jadval: Mijozlarning kreditlash jarayonini nomoliyaviy ko'rsatkichlari orqali baholash[3]

| Ko'rsatkichlar | | Ball |
|---|---|---|
| **Korxonaning umumiy kredit tarixi:** | | **20** |
| 3 yildan ortiq muddatda banklar, jumladan mijozlar bankdan olingan kreditlarni o'z vaqtida va to'liq to'langan. | 1 sinf | 20 |
| 3 yilgacha muddatda banklar, jumladan mijozlar bankdan olingan kreditlarni o'z vaqtida va to'liq to'langan | 2 sinf | 15 |
| Oxirgi uch yilda banklar, jumladan mijozlar bankdan kredit summasini (asosiy va foiz) belgilangan muddatlardan kechikib yoki qisman to'langan. Biroq kredit va uning foizlari to'liq qaytarilgan (bir oygacha muddat ichida). | 3 sinf | 12 |
| Oxirgi uch yilda banklar, jumladan mijozlar bankdan olingan kredit summasi (asosiy va foiz) belgilangan muddatlardan kechikib yoki qisman to'langan. Biroq kredit va uning foizlari to'liq qaytarilgan (bir oydan ortiq muddatda) | 4 sinf | 9 |
| Banklar, jumladan mijozlar bankdan olingan kredit summasini (asosiy va foiz) to'liq to'lanmaganda. | 5 sinf | 0 |
| **Kredit ta'minoti:** | | **20** |
| Ta'minot zamonaviy, yuqori likvidli, yetarli, egalik huquqi mijozlarga tegishli. Kafilning moliyaviy ahvoli mutloq barqaror. Sug'urta polisi kreditni to'liq qamragan va to'liq davrga olingan. | 1 sinf | 20 |
| Ta'minot yangi, likvidli, yetarli, egalik huquqi mijozlarga tegishli. Kafilning moliyaviy ahvoli barqaror. Sug'urta polisi kreditni 50 %ini qamragan va davrning 50 % olingan. | 2 sinf | 15 |
| Ta'minot 50 %dan ko'p eskirgan, likvidli, yetarli emas, egalik huquqi korxonaga tegishli. Kafilning moliyaviy ahvoli barqaror. Sug'urta polisi kreditni 25 %dan 50 %gacha qamragan va davrning 25 %dan 50 %gacha olingan. | 3 sinf | 12 |
| Ta'minot eski, nolikvid, yetarli emas, egalik huquqi boshqa mijozlarga tegishli. Kafilning moliyaviy ahvoli nobarqaror. Sug'urta polisi kreditni 25 %dan kam qismini qamragan va davrning 25%dan kam qismi olingan. | 4 sinf | 9 |
| Ta'minot yaroqsiz holatga kelgan, nolikvid, yetarli emas, egalik huquqi boshqa mijozlarga tegishli. Kafilning moliyaviy ahvoli bankrot oldi holatida. Sug'urta polisi kreditni 25 %dan kam qismini qamragan va davrning 25 %dan kam qismi olingan. | 5 sinf | 0 |
| **Loyihaning realligi:** | | **20** |
| Bankning kredit siyosati talablariga mos keladi va asoslangan axborot manbalariga ega. Loyihani amalga oshirish imkoniyati mavjud: mijozlarning ijobiy moliyaviy natijasi hamda pul oqimi hajmi olinadigan kredit summasi (asosiy va foiz) to'lashga yetarli. Loyihaning biznes-rejasi iqtisodiy va amaliy jihatdan asoslangan. Mijozlarda kompetent xodimlar yetarli. Qulay tabiiy sharoit, yetarli infrastruktura va kommunal xizmatlar mavjud | 1 sinf | 20 |
| Bankning kredit siyosati talablariga mos keladi va asoslangan axborot manbalariga ega. Loyihani amalga oshirish imkoniyati mavjud mijozlarning ijobiy moliyaviy natijasi hamda pul oqimi hajmi olinadigan kredit summasi (asosiy va foiz) to'lashga yetarli. Loyihaning biznes-rejasi iqtisodiy va amaliy jihatdan asoslangan. Mijozlarda kompetent xodimlar soni yetarli emas. Qulay tabiiy sharoit va yetarli infrastruktura mavjud. Kommunal xizmatlar ko'rsatishda uzilish kuzatiladi. | 2 sinf | 15 |
| Bankning kredit siyosati talablariga mos keladi va yetarli axborot manbalariga ega. Loyihani amalga oshirishda jiddiy tavakkalchilik mavjud. Mijozlarning ijobiy moliyaviy natijasi hamda pul oqimi hajmi olinadigan kredit summasi (asosiy va foiz) to'lashga yetarli. Mijozlarda kompetent xodimlar soni yetarli emas. Qulay tabiiy sharoit va yetarli infrastruktura mavjud. Kommunal xizmatlar ko'rsatishda uzilish kuzatiladi. | 3 sinf | 12 |
| Bankning kredit siyosati talablariga to'liq mos kelmaydi va yetarli axborot manbalariga ega emas. Loyihani amalga oshirishda jiddiy tavakkalchilik mavjud. Mijozlarning ijobiy moliyaviy natijasi hamda pul oqimi hajmi olinadigan kredit summasi (asosiy va foiz) to'lashga yetarli bo'lishi tavakkalchilikka bog'liq. Mijozlarda kompetent xodimlar soni yetarli emas. Qulay tabiiy sharoit va yetarli infrastruktura mavjud. Kommunal xizmatlar ko'rsatishda uzilish kuzatiladi. | 4 sinf | 9 |
| Bankning kredit siyosati talablariga mos kelmaydi va yetarli axborot manbalariga ega emas. Loyihani amalga oshirishda yuqori tavakkalchilik mavjud. Mijozlarning salbiy moliyaviy natijasi hamda pul oqimi hajmi olinadigan kredit summasi (asosiy va foiz) to'lashga yetarli emas. Mijozlarda kompetent xodimlar soni yetarli emas. Qulay tabiiy sharoit va infrastruktura mavjud emas. Kommunal xizmatlar ko'rsatish yomon. | 5 sinf | 0 |

3 Муаллиф томонидан тузилган.

| | | |
|---|---|---|
| **Tovarlarning raqobatbardoshlik darajasi.** | | **20** |
| Tovarlarning xilma-xilligi, sifati yuqori, yuqori qo‘shimcha qiymat va optimal bahoga ega, optimal xarajat, sotish servisi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan,talab yuqori. | 1 sinf | 20 |
| Tovarlarning xilma-xilligi, sifati yuqori, sotish servisi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan, optimal baho, diferensiyalangan xarajat, talab mavjud | 2 sinf | 15 |
| Tovarlarning turi kamligi, sifati o‘rtacha, o‘rtacha baho, o‘rtacha xarajat, sotish servisi yo‘lga qo‘yilgan | 3 sinf | 12 |
| Tovarlarning turi kamligi, sifati past, o‘rtacha baho, xarajat yuqori, sotish servisi talab darajasida emas | 4 sinf | 9 |
| Tovarlarning turi kamligi, sifati past, o‘rtacha baho, xarajat yuqori, sotish servisi mavjud emas, talab o‘ta kam. | 5 sinf | 0 |
| **Biznes obro‘si** | | **20** |
| Mijozlarning soha va tarmoqdagi o‘rni yuqori, bozordagi obro‘si yuqori, brend taniqli | 1 sinf | 20 |
| Mijozlarning soha va tarmoqdagi o‘rni o‘rtacha, bozorda o‘z obro‘siga ega, brendi xaridorlarga tanish | 2 sinf | 15 |
| Mijozlarning soha va tarmoqdagi o‘rni sezilarli ahamiyatga ega emas, brendi xaridorlarga tanish emas. | 3 sinf | 12 |
| Mijozlarning soha va tarmoqdagi o‘rni ahamiyatga ega emas, brendi xaridorlarga tanish emas. | 4 sinf | 9 |
| Mijozlarning soha va tarmoqdagi o‘rni ahamiyatga ega emas, bozorda o‘z obro‘siga ega emas, brendi mavjud emas | 5 sinf | 0 |
| **Umumiy ball** | | **100** |

Respublikamiz bank sohasidagi kredit munosabatlarida amalga oshirilayotgan mijozlarni moliyaviy holatini va kreditga layoqatliligini baholashni davr talablari asosida takomillashtirish uchun yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan kamchiliklarni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan maqsad kredit olgan va foydalanayotgan mijozlarning moliyaviy holati va kreditga layoqatliligini baholashni to‘liq, aniq va tezkor o‘rganishdir. Bu bilan kreditga layoqatli bo‘lgan eng munosib mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida ularga imtiyozlar berish va shu orqali kredit portfelining sifatini oshirish imkoniyati yaratiladi. Natijada esa kredit riski sezilarli kamayishga erishiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari tomonidan mijozlarga ajratilgan kreditlar shartlarini “transformatsiyalash modeli” ball tizimi orqali takomillashtirishtirilgan elektron dasturini taklif qilamiz.

Transformatsiyalash modeli mijozlarning kreditga layoqatliligini ikkita muhim jihat asosida 5 ta sinfga ajratib baholab beradi:

1. Moliyaviy ko‘rsatkichlar (likvidlilik ko‘rsatkichlari, balans likvidliligi, aylanuvchanlik ko‘rsatkichlari, samaradorlik ko‘rsatkichlari, barqarorlik ko‘rsatkichlari) asosida baholash;
2. Nomoliyaviy ko‘rsatkichlar (umumiy kredit tarixi, kredit ta’minoti, loyihaning realligi, tovarning raqobatbardoshlik darajasi, biznes obro‘si) asosida baholash.

4-jadval: Sinflar bo‘yicha kredit shartlarini bajarish tartibi[4]

| Sinf | Qisqacha izoh | Jami (ball) |
|---|---|---|
| 1-sinf | Bu toifadagi mijozlar kredit to‘lay olish qobiliyati yuqori. Ushbu mijozlarga ajratilgan kreditning umumiy tartibida yuqori imtiyozlar berish mumkin. | 156-200 |
| 2-sinf | Bu toifadagi mijozlar kredit to‘lay olish qobiliyatiga ega. Ushbu mijozlarga ajratilgan kreditning umumiy tartibda imtiyozlar berish mumkin. | 120-155 |
| 3-sinf | Bu toifadagi mijozlar kreditni to‘lay olishi mumkin. Ushbu mijozlarga ajratilgan kreditning umumiy tartibda imtiyozlar berish mumkin emas. | 82-119 |
| 4-sinf | Bu toifadagi mijozlarning moliyaviy holati barqaror emas. Ushbu mijozlarga ajratilgan kreditning qaytarish riski yuqori hisoblanadi. | 81 гача |
| 5-sinf | Bu toifadagi mijozlarning moliyaviy holati juda yomon. Ushbu mijozlarga ajratilgan kreditning qaytarish riski juda yuqori hisoblanadi. Ushbu kreditlarni muddatidan oldin qaytarish choralarini ko‘rish lozim sanaladi. | 0 |

Mijozlarning kredit shartlarini bajarishi va moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida 100 ball va nomoliyaviy ko‘rsatkichlar asosida 100 ball umumiy 200 ball bilan baholanadi (4-jadval).

4 Muallif tomonidan tuzilgan.

Mijozlarga ajratilgan kreditlar shartlarini “transformatsiyalash modeli” ball tizimi dasturi bo‘yicha to‘plangan jami ball 0 balldan 200 ballgacha oralig‘da 5 ta sinfga bo‘lib o‘rganiladi. 5-jadvalda sinflar bo‘yicha to‘liq tafsiloti berilgan.

5-jadval: Transformatsiyalash modeli ball tizimi shkalasi

| Sinf | Sifati | Foiz stavkasiga nisbatan imtiyoz | Foizining muddatiga nisbatan imtiyoz |
|---|---|---|---|
| 1-sinf | Eng yuqori | 20 фоиз | + 4 oygacha |
| 2-sinf | Yaxshi | 10 фоиз | + 2 oygacha |
| 3-sinf | O‘rta | O‘zgartirishsiz | |
| 4-sinf | O‘rtadan past | Ogohlantirish | |
| 5-sinf | Qoniqarsiz | Muddatidan oldin qaytarish choradarini ko‘rish | |

Mijozlarga ajratilgan kreditlar shartlarini “transformatsiyalash modeli” ball tizimining afzal jihatlari:

- Ushbu model mijozlarning kredit shartlarini bajarishiga va uni qaytarish layoqatliligiga aniq, to‘liq, keng qamrovli baholash imkoniyatiga ega.
- Amaldagi baholashdan farqli ravishda kredit shartlarini bajarish va uni qaytarish layoqatlilik holati 5 ta sinf asosida amalga oshiriladi. Bu banklar tomonidan mijozlarlik subyektlarni kredit shartlarini bajarishi va kreditning qaytarilish holati bo‘yicha tanlash imkoniyatini oshiradi.
- Kreditni qaytarish imkoniyatini baholash mezonlarini hisoblash usullari takomillashtirildi, ya’ni aniqlikni ta’minlash darajasi oshirildi.
- Xalqaro tajribalar e’tiborga olingan holda shakllantirildi.

Ushbu model mijozlarning moliyaviy va nomoliyaviy ko‘rsatkichlari asosida kreditga layoqatliligini kompleks baholash orqali kredit portfeli riskini keskin pasaytirish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik.-T.: Iqtisod-Moliya. 2017. 732 b.
2. Abdullayeva Sh.Z. Kreditlashda skoringni qo‘llash amaliyoti. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnal. 2017. №1, 11 b.
3. Azizov U.O‘ va boshqalar. Bank ishi.-T.: Fan va texnologiya, 2016. 640 b.
4. Alimardonov I.M. Kichik biznes subyektlarining kredit to‘loviga layoqatliligini baholash amaliyotini takomillashtirish. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnal. 2017. №2, 6 b.
5. Ендовицкий Д. А., Бахтин К. В., Ковтун Д. В. Анализ кредитоспособности организации и группы компаний : учебное пособие.- М. : КНОРУС, 2016. 376 с.
6. Ендовицкий Д.А., Бочарова И.В. Анализ и оценка кредитоспособности заемщика. Учебно-практическое пособие. М. : КНОРУС. 2005. – 272 с.
7. Лиференко Г.Н. Финансовый анализ предриятия: Учеб.пособие.-М.: Экзамен, 2005. с. 160
8. Mavlanov N.N. Korxona kreditga layoqatliligini baholash va uni kompleks tahlilini takomillashtirish. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnal. 2016. №3, 9 b.
9. Мавланов Н.Н. Сравнительная оценка современных концепций анализа кредитоспособности: научные подходы и практика. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnal. 2018. №1, 14 b.
10. Mamatov B.Sh., Qulliyev I.Ya., Pulatova M.B. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida mijozlarning kreditga layoqatliligini baholash amaliyotini takomillashtirish. Monografiya.-T.:Extremum-press, 2016. 112 b.
11. Наумченкова Ю. В. Оценка кредитоспособности заемщика. Теория и практика современной науки. 2016. № 5. с.5
12. Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili.O‘quv qo‘llanma.-T.: Iqtisod-Moliya, 2015. 392 b.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 3**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.